



NEYROPSIXOLINGVISTIKA: LINGVISTIK SHAXSNING RANGIN OLAMI

Bobokalonov Ramazon Rajabovich

filologiya fanlari doktori, BuxDU, professori, boboramazon@yahoo.fr

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada lingvistik shaxs bilan bog'liq Barnum effekti, aqlli insonlarning nutqiy konfiguratsiyasi va neyropsixolingvistik holatlariga ahamiyat berishni o'z oldimizga maqsad qildik.

Tayanch so'z va iboralar: neyropsixolingvistika, Barnum effekti, lingvistik shaxs, ruhiy holat, inson xarakteri, nutqiy konfiguratsiya, psixolingvistika, personologiya, kommunikologiya, diskursologiya, sotsiologiya, kultrologiya, nevrologiya.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslik zaminida rivojlanib borayotgan ko'p tarmoqli neyropsixolingvistikaning o'zaro aloqador (psixolingvistika, personologiya, kommunikologiya, diskursologiya, sotsiologiya, kultrologiya va nevrologiya) sohalariga e'tibor berish Yangi O'zbekiston uchun juda muhim va dolzarb masala sanaladi. Zero, jamiyat markazida turgan lingvistik shaxsni tarbiyalashda va inson qadrini ulug'lashda, yoshlar uchun farovon turmush tarzini yaratishda neyropsixolingvistikaning ahamiyati kattadir. Neyropsixolingvistika markazida inson: insonning jamiyatdagi mavqei, nutq madaniyati va muloqot o'rnatish qobiliyati muammolari turadi.

Lingvistik shaxsning kommunikalogik va diskursalogik kontentlarini aniqlashda, ayniqsa, ta'sirchan nutq ifodalarini tahlil qilishda Barnum effekti qo'l keladi. "Psixologiyada Barnum effekti – odamning umumlashgan shaxs tavsifini aynan o'ziga tegishli deb hisoblashidir [6].” Inson ongi, tafakkuri va nutq ta'siri bilan aloqador mazkur holat “Nima uchun, nega, nima sababdan bu inson shunday?” degan savollarga javob topishda yordam beradi.

Asosiy fikr-mulohaza

“Barnum effekti” atamasi XX asrda amerikalik teatr tadbirkori – shoumen Finias Teylor Barnum sharafiga qo'yilgan. U tomoshobin uchun "har daqiqada so'rg'ich kerak" iborasini ishlatgani uchun shunga sazovor bo'lgan. Demak, teatr - ma'naviy tarbiya maskani. Agar tomoshobin u yerda o'z ehtiyojini qondirish uchun o'ziga kerakli narsani olmasa, teatrga borishdan ma'no qolmaydi. Shu sababli teatr va sahna tomoshabinlarning diqqatini g'ayrioddiy holatga jalb qilishi zarur [6].

Amerikalik psixolog Bertram Forer shu g'oyani davom ettirib, so'zni hamma uchun xavfsiz qo'llash mumkinligini yoqlab, “**So'z ta'sirida inson ruhiyatini uyg'otish mumkin**”ligini isbotladi. U inson ruhiyatini o'rganishga qaratilgan bu oddiy tadqiqotni ball tizimida amalga oshirib, *Forer effekti* deb shuhrat qozondi. “Barnum effekti” atamasini fanga psixolog Pol Meehl (1950) mustahkamladi. Barnum effekti – bu kognitiv moyillik bo'lib, odamlar umumiy shaxsiy tavsiflar va ma'lumotlar o'zlariga tegishli deb hisoblaganlarida paydo bo'ladi. Aslida, bu tushunchalar umumiy va noaniq bo'lib, deyarli hamma uchun bir xilda amal qiladi. Barnum ta'siriga tushish insonni shok yoxud gipnoz holatiga olib keladi. Bu vaziyatdan ekstrasiyalar, folbin va bashoratchilar unumli foydalanishadi. Shokka tushgan odam nima deganini anglamaydi, aqlan zaif holatga tushib, o'zini boshqara olmaydi. Shok holatiga tushgan kimdir “axmoq”, shokka tushirgan esa o'ta “aqlli” bo'ladi. Demak, Barnum effekti odamlarni



manipulyatsiya qilish yoki psixologik hiyla va psixologik fokus ishlatish usuli hisoblanadi. Psixologiyada Barnum effekti umumlashtirilgan tavsiflarni “Bu men-ku” yoki “o’zimga” deb hisoblash usulidir. Bu o’ta aqlli odam tomonidan shaxs ong-tafakkurini chalg’itish va “o’ziga ishonitirish” qobiliyati hisoblanadi [6].

Lingvistik shaxs aql-zakovat tasavvuriga, poetik tuyg’uga yoki durdona asar chizish qobiliyatiga ega. Shuni e’tiborga olish kerakki, har bir inson aql-zakovatini o’zi uchun juda muhim bo’lgan aqliy mashqlarni o’z miyasida loyihalashtiradi, har kuni to’g’ri reja tuzadi va uni amalga oshiradi. Natijalaridan o’zi zavq oladi, ruhan tetiklashadi. Bunday doimiy mashg’ulot ruhiy degenerativ kasalliklar (altsgeymer, demans praekoks, xotira va h.k.) dan asraydi.

Bashoratchi-munajjimlar ham aqlli odamlar, “tug’ma iste’dodli” ruhshinos – inson ruhiyatini nutq ta’sirida falaj qilib, ma’lum muddatda gipnoz qilishni biladigan ustomon “supermen” hisoblanishadi. “Id” va “Ego”ni o’zida bo’yin so’ndirgan “supermen” insonning qalbiga g’ulg’ula soladi, cho’chitadi, uning ichki olamiga yo’l topib, bir muddat uning o’zligidan chiqaradi [2, 234]. So’z orqali ta’sir o’tkazishda qo’rqitish yoki g’ayrioddiy usullardan foydalanadi, verbal va noverbal nutq ta’sirida inson ruhiyatiga “aqliy hujum” qilib, ong va sezgi qobiliyatini nazoratdan chiqarib oladi. Qo’qisdan harakat qilishda yoki gipnoz holatida aql orqaga chekinadi: *qiziqish, qo’rqish, tabiiy moyillik, xayol surish, parishonlik* kabi ruhiy istaklar paydo bo’ladi. Uning ortidan buyruq beriladi. Diqqat ma’lum nuqtada muzlatiladi, inson tush ko’rayotgan kabi xayolot ummoniga g’arq bo’ladi.

Gap lingvistik shaxsning ichki va tashqi olami, unda yashiringan sir-sanoatni bilish haqida borar ekan, inson eng avvalo, har bir inson o’z olamida ham, o’zgalar olamida ham, birinchi navbatda o’zini tasavvur qilib ko’radi. F.T. Barnum tushuntiradi: "Siz mustaqil fikrlovchisiz, siz boshqalardan farqli ravishda ishlarni qilishdan faxrlanasiz. Ba’zida siz baland ovozda, ochiqko’ngil va odamlarga xos bo’lishingiz mumkin, lekin ba’zida siz jim, uyatchan va ehtiyotkor bo’lasiz. Siz hatto o’zingizga haddan tashqari qattiqqo’l va juda tanqidiy munosabatda bo’lishingiz mumkin [5]." Shuning uchun har bir insonda o’zi bilan o’zi gapirish instinkti – mavjud. Bu instinkt ruhiy toliqish jarayonida bexosdan nutqda avtomatlashib reallikka chiqqanini uchratish mumkin. Chunonchi, Amerika prezidenti Djo Bayden jamoa oldida g’alati holatda atrofdagilarni hayron qoldirayotgani, noo’rin hatti-harakatlar va chalkash fikrlarga yo’l qo’ygani internet tarmoqlaridan – ma’lum.

Barnum effekti ta’siriga tushish. Bu holat munajjimlar bashoratida va folbinlik muloqotida bilinadi. Insonlar har doim o’zlariga tashqaridan yordam izlaydi. Hammada qandaydir ruhiy kamchiliklar kuzatiladi. Turmush tarzi haqiqiy hayot darajasiga mos kelmaydi, shu sabab biron bir istak yoki bashoratga moyillik sezadi. Bashoratlar har bir kishiga tegishli bo’lgan konseptga ega bo’ladi. Zodiak belgilari ostida munajjimlar har bir inson uchun zarur bashoratni mantiqiy bayon eta olishadi. Odamning individual belgilariga asoslangan yoqimli gaplar uni “chupchak”ka oson ishonitiradi. Maxsus dasturlashtirilgan nutq "Bu butunlay men" deb o’ylashga uni majbur etadi. Munajjimlar bashoratida bildirilgan fikr qanchalik ijobiy bo’lsa, uni to’g’ri deb qabul qilish ehtimoli shunchalik yuqori bo’ladi: "Sizning kuningiz dahshatli qiyinchiliklarga to’la bo’ladi" degan gapdan ko’ra "Bugun sizning hayotingiz ajoyib kutilmagan hodisalarga to’la bo’ladi" deb yozilgan jumlagi inson ko’proq ishonadi. Shuningdek, "Siz yaqinda yaxshi odam bilan tanishasiz", "Hayotingiz yaxshi narsalarga to’la bo’ladi", "Sizni ajoyib kelajak kutmoqda" kabi gaplar inson ruhiyatiga ta’sir qiladi va unga ishonishga motivatsiya uyg’otadi.

Agar chaqaloq o’pka sig’imi tor (o’rtacha holatdan "kichikroq") tug’ilgan bo’lsa, mashqlar bajarish orqali me’yoriy qobiliyatni tiklash osonligi tibbiyotda aniqlangan. Ammo miya haqida



gap ketganda, afsuski, "yaxshilanishi mumkin bo'lgan xotira va faoliyatni muvofiqlashtirish imkoniyati" (harakat qilish qobiliyatini tiklash intellekti) qiyin bo'ladi. Imkoniyati cheklangan bolalarda nutqni yaxshilash mumkin bo'lgan yagona chorza: aqldan to'g'ri foydalanish, olamni to'g'ri idrok etishga e'tibor qaratish, uni aqli zaiflikdan qutqarishdir. Nutqni sozlash uchun qanchalik ko'p "mashq qilinsa", miya samaradorligi shunchalik o'sadi va xotira charxlanadi. Shu zaylda lingvistik shaxs tibbiy ko'rsatmalar asosida ongli faoliyatga qaytadi. Psixologiyada Barnum effekti umumlashtirilgan tavsiflarni "Bu men-ku" yoki "o'zinniki" deb hisoblash usulidir. Bu o'ta aqli odam tomonidan shaxs ong-tafakkurini chalg'itish va "o'ziga ishontirish" qobiliyati hisoblanadi.

Bertrand Arthur William Russellning aqli va axmoqqa bergan ta'rifi: "Bu dunyoda muammo shundaki, ahmoqlar hovli xo'rozlaridek mag'rur va o'ziga ishonadi, aqli odamlar esa shubhaga ko'miladi." Bu fikrda ahmoqqa ortiqcha mag'rurlik, aqli odamda shubha ustunlik qilishi ta'kidlanadi. Charlz Bukovski esa: «Dunyodagi eng katta muammo shundaki, aqli odamlar shubhalarga to'la, ahmoq odamlar esa aniqliklarga to'la,» – deb uning fikrini tasdiqlaydi. Bundan ma'lum bo'ladiki, lingvistik shaxs tabiatida ijobiy (aqli) va salbiy (aqlsiz) fazilatlarini ifoda etadigan individual nutq mavjud.

Lingvistik tahlil

Ruhiy holat bilan aloqador turli fe'l-atvorli insonlarning nutqiy konfiguratsiyalarida **soddalik, mehribonchilik, kamtarinlik, mulohazakorlik, andishali bo'lish, qo'rqish, qichqirish, baqirish, g'o'dayish, kibrlanish, maqtanish** kabi lingvistik belgilar – nutq ohanglari namoyon bo'ladi [3; 4]. Xarakter uning turli darajadagi nutqidan anglashinadi. Masalan, atrofimizdagi odamlarni uch toifaga ajratish mumkin: 1. O'qimishli, 2. Aqli va 3. Daholar.

O'qimishli odamlar [O'o] maktab yoshidan yaxshi o'qiydi: darslarni yod oladi, hayotiy savollarga to'g'ri javob beradi, o'z paradigmasiga o'ralashib yashaydi, rivojlanadi, ko'pincha o'qish dargohini haqiqiy dunyo deb hisoblaydi.

Aqli odamlar [Ao] foydali narsalarni chuqurroq tushunadi: haqiqiy bilimni manfaatli ishlatishni biladi, oddiy va qiyin muammolarni oson yechadi, jamoa yoki "tizim" ichida haqiqiy va samarali o'zgarishlarni amalga oshiradi. Jamiyat ehtiyojlaridan ustun qo'yilgan hukmronlikka qarshi bo'ladi. Aksariyat holda ishi yurishmay to'siqqa uchrab, yechim topishga qodir emasligini tushunib, hafsalasi pir bo'lishi kuzatiladi.

Daho odamlar [Do] narsa va voqelikni tubdan o'zgacha idrok etishadi: daholar yaxshi o'qigan, tizimning qanday ishlashini tushunadigan odamlar, Ular dunyoni boshqaradigan o'zaro ta'sirlarning murakkabligini, ko'pincha soddaligini chuqurroq tushunishadi. Ko'proq atrofdagi hodisalarning bir-biriga qanchalik bog'liqligini tez fahmlashadi. Afsuski, bunday odamlar ko'pincha atrofdegilar, tizim boshqaruvi va siyosat bilan bir xil tilda gaplashmaydi.

[Do] va [Ao]lar ko'pincha o'zini o'ylamaydi – ular dunyoning markazi bo'lishni emas, balki uning bir qismi ekanligini tushunishadi. [O'o]lar esa o'zlarini dunyoning markaziga qo'yib, muammolarga o'rtacha va ko'pincha halokatli yechimlarni taklif qilishadi – muammolarning murakkabligi ularning «ego»si tomonidan xudbinlikka yetaklaydi. [Ao]larni qanday aniqlash mumkin degan savolga Eleanor Ruzvelt shunday javob beradi: "Buyuk aqlilar g'oyalarni muhokama qiladi; o'rtacha aqlilar voqealarni muhokama qiladi; kichik aqlilar odamlarni muhokama qiladi." Birgina [Ao]larning xarakter xususiyatlarini ularning nutqiy konfiguratsiyasida aniqlashtirish mumkin (misollar o'zimizdan nisbiy):



1. [Ao]lar g'iybatni yoqtirmaydi, g'oyalar va yangiliklar haqida gapirishni yaxshi ko'radi, odatda behuda gap-so'zlarga, kamsitishga va hasadgo'ylikka quloq solmaydi, dangalchi va cho'rtkesar, hamma bilan do'st bo'lishi qiyin: *Hey, bas qil shu gapni? Indamasam, gapga avra-ostar tikasan.*
2. [Ao]lar keng doiradagi turli mavzularda munozaralarga o'ch bo'ladi. Siyosat, joriy ijtimoiy voqealar yuzasidan fikr yuritadi, faktik va ba'zan aniq sanalar bilan gapirishadi, ko'proq bahslashishga moyil bo'lishadi: *Chiqarilgan qaror juda o'rinli! Unda xalq manfaati. yurt iqboli ko'zlangan.*
3. [Ao]lar atrofida qilarni yaxshi tinglaydi, jim o'tirib, boshqalarni kuzatadi, to'g'ri fikrini olqishlaydi: *Balli, Ofarin, Barakalla, Ayni muddao.*
4. [Ao]lar vaqtning qadrini biladi: reja tuzishadi, unga amal qiladi, boshqalarni yaxshilikka undaydi: *"Vaqt –oltin", "Vaqtning qadri baland", "Umr oqar daryo", "Hamma ishga ulgurish kerak"* kabi.
5. [Ao]larda o'ylash va tashvishlanish holati ko'p kuzatiladi, olamni intuitiv tahlil qiladi, asab, bosh og'rig'i va migrenga moyil kasalligi paydo bo'ladi, keskin gapiradi: *Bulmag'ur gap. Bu narsalar bilan boshni qotirish yaramaydi. O'lab ko'ring, adolat kim tomonda?*
6. [Ao]lar boshqalarga yo'l ochib beradi. Mansabdan ketishidan qo'rqmaydi, hayotdagi missiyasi qat'iy bo'ladi: *Mansab va pul insonni xarob qiladi. Ularga mehr qo'yish – sog'ligni garrovga tikish bilan barobar.*
7. [Ao]lar umrbod ta'lim olish va shaxsiy rivojlanishga ishonadi, ko'p maqol ishlatadi: *"Bilmaganini so'ragan – olim, so'ramagan o'ziga zolim".*
8. [Ao]lar hayotni to'g'ri idrok etishadi: tungi klublarni xush ko'rmaydi, birov (erkak/ayol) larning orqasidan yugurmaydi, televizor ko'rishga o'ch bo'lmaydi va foydali faoliyat (kitob o'qish, kreativ ijodkorlik) bilan shug'ullanadi. Yutuq va yaxshi natijalarini do'stlari bilan o'rtoqlashadi: *Qarangchi, oxshabdimi? Hali ozgina ustida ishlash kerak.*
9. [Ao]lar tez – o'zgaruvchan, vaziyatga tez moslashadi, noqulay holatdan chiqadi. Ammo, o'zlarining konfort zonasidan chiqishni yoqtirmaydi, tavakkalchilikdan cho'chishadi: *Iltilos, meni tinch qo'ying. Siz ham shaytonga hay bering. Mendan ranjimang. O'ylab ko'ray. Biroz shoshmay turing!*
10. [Ao]lar noqulay sharoitdagina tavakkal qiladi, shaxsiy hayyot konforti uchun intiladi. "Tavakkal qilish – hayot uchun xavfli" ekanligini bilib, ehtiyot chorasini ko'radi. Pand-nasihatga amal qiladi: *"Yeti o'lchab, bir kes", "Shoshma-shosharlik bilab ish bitmaydi", "Har ishda tavakkal va ehtiyotkorlik shart".*
11. [Ao]lar olomonga ergashmaydi, voqelikni obdon tahlil qiladi, xavfdan do'stlarini ogohlantiradi: *Avval bir qarorga uzil-kesil keling. Yaqinlardan, ustozlardan maslahat so'rang. Ishning oqibati nima bilan tugashini biling!*
12. [Ao]lar juda ijodkor va jur'atli shaxs: *Men qaror chiqarib bo'ldim. Shuni o'zim amalga oshiraman.*
13. [Ao]lar erta uyg'onadi, uxlashdan oldin xayolan yangi kunning loyihalarini chizadi, vaqtni yangi narsalarni o'rganishga sarflaydi: *Shuni bilgim kelyapti. Ertaga shu ish bilan band bo'laman.*
14. Nodon odamlar doimo o'zlarini zo'r deb bilishadi, [Ao]lar esa hamma narsaga shubha bilan



- qaraydi, vaqtini ko'proq o'rganishga sarflashadi: *Shu gapga ishonish mumkinmi? Rostligini qanday bilsa bo'ladi?*
15. [Ao]larni chetdan kuzatgan "dangasa" deb o'ylaydi, chunki ular og'ir ishni yengillashtirish uchun harakat qilib, o'ylash ko'rishga vaqt sarflaydi: *"Biroz obdon o'ylab ko'raylik. Bu ishni bajarishning oson yo'llari border."*
 16. [Ao]lar qiziquvchan, ochiq fikrli, ko'p savol berishadi: *"Nima qilishni oldindan tushuntira olasizmi? Bundan hech birimiz zarar ko'rmaymizmi?"*
 17. [Ao]larning idorasi ko'pincha tartibsiz bo'ladi: *"Kechirasiz, yig'ishtirishga ulgurmay qoldim. Aybga yoymaysiz, uzr so'rayman."*
 18. [Ao]lar uchun ijtimoiy tarmoqlar aslida foydali emas, balki ular tarmoqni saqlash va rivojlantirishga yordam berishadi: *"Mana sizga tarmoqni jonlantirish uchun ibratli hikoya (yoki yangi hikmatli so'z)." . "*
 19. [Ao]lar o'z hayotini odamlarga taassurot qoldirish uchun o'tkazadi, yashaydi, birovning hayot tarzi haqidagi fikriga ahamiyat bermaydi: *"Odamlarga yaxshi bo'lishini istayman. Birov bilan ishim yo'q, ammo ularga qo'limdan keladigan yaxshilikni qilgim keladi."*
 20. [Ao]larning biror kishi bilan gaplashishda muammolari bo'lmaydi, ko'pincha kulgili va baxtli onlarini hikoya qilishadi: *"Bilasizmi, yoshligimda qiziq bir voqea yuz bergan edi"*
 21. [Ao]lar uydan chiqayotganda hamma narsa "muvozanat"da ekanligini tekshirishni unutmaydi: *"Chiroq, suv, gazni o'chirdingmi? Qalam, qog'oz, smartfoningni oldingmi? Biror narsa esdan chiqib qolmadimi?"* [Ao]larda Barnum effekti ta'siridan qochish bosqichida shubhani yashirish uchun: *"Mening ham o'z qarashlarim bor"; "Men ham odamlarni yaxshi farqlayman"; "Faqat o'z salohiyatimni to'liq ishlata olmayapman"* kabi ichki nutq namoyon bo'ladi.

Boshqa bir holat. Tibbiy psixologiyada ta'kidlanishicha, inson miyasi shunday yaratilganki, u har doim ham tanqidni hazm eta olmaydi. Tanqid insonni tez charchatadi. Tanqid yukini ko'tarish uchun insonlar o'rtasida yaqinlik va birdamlik bo'lishi kerak. Shaxsning sabr-bardoshini tarbiyalamay turib, unga tanqid nazari bilan munosabat qurib bo'lmaydi. Hammada ham do'stona tanqidni tushunish, idrok eta bilish qobiliyati chidamli emas. Agar kimdir sizning salbiy tabiatigiz yoki nuqsoningizni topib gapirsa, unga nisbatan fikringiz o'zgaradi. Ularni rad etishga intilasiz. Aksincha holatda, kamchiliklarni yashirib turib maqtasa, yoki fikringizni yoqlab gapirsa, sizda yoqimli his paydo bo'ladi.

Odamlar o'z bilganicha nutqdan foydalanishadi. Birovni tasdiqlashda shunchaki "Ha!" degandan ko'ra "Bu haqiqat!" deb munosabat bildirish e'tiborni oshiradi. Bunda suhbatdosh fikri oshirib tasdiqlanadi va rag'batlantiriladi. Barnum effekti bilan aldashning keng tarqalgan oddiy usullaridan biri – shu.

Barnum effekti ta'siridan qochish. Qo'l berib ko'rishishdan maqsad – iliq munosabatni va o'zaro qiziqishlarga asoslangan muloqotni o'rnatishdan iboratdir. Qo'l berib ko'rishishda shaxslararo energiya impulsi qo'ldan qo'lga o'tadi. Unda kaftlar jipslashadi, qo'l kaftida jamlangan energiya maydonida sezilarli darajada vakuum (tashqi intuitsiya) hosil bo'ladi. Kuchsiz tomon kuchli tomon qo'l taftiga iqror bo'lib, nutq vaziyatidan chekinadi. Nutqiy konfiguratsiya holatida g'olib – o'zining shaxsiy intellektual energiyasiga ishonib, nutq vaziyatini oson o'ziga og'darib oladi va suhbatni boshqaradi. Kuchsiz tomon esa, birinchi shaxsning gaplarini avval tinglashga mahkum - uning ish bajaruvchanlik qobiliyati past bo'ladi. Nutq pozitsiyalarining ustunligi esa muammolarni oson o'z manfaatlarini qondirishga sarf etish



sanaladi. Ba'zi vaziyatda, inson qo'l uchida – qo'l uzatishda kaftini to'g'ri tutmasdan xatoga qo'yadi. Knesik holatga e'tiborsizlik – to'g'ri ko'rishmaslik odamning hurmat xarizmasini passaytiradi.

Bilamizki, ayolga erkakning qo'l uzatishi madaniyatsizlik hisoblanishi, ayolning erkak oldida o'zini ojiz sezmaslik, bahs-munozarada o'z pozitsiyasini boy bermaslik ehtiyot chorasi hisoblanadi.

Inson xayolan o'zga olamda sayr qiladi, orzu-hafaslarga g'arq bo'ladi. Aksariyat holatda, u o'zga olamda o'zini izlab topadi – xursand bo'ladi, ba'zan esa aksincha – ranjiydi, o'ksinadi. Mana shu xayolot olamida o'ziga xos mexanizm markazida “mavhum odam joylashib oladi.” Aqlan teran odam ham u bilan o'z olamini baham ko'radi – ichki nutqqa ruhan moyil bo'ladi. Barnum ta'siridan qochish uchun infinitiv ma'lumotlarni eshitayotganda, kuzatayotganda, ko'rayotganda yoki o'qiyotganda **“suhbatdoshning nutqidan shubhalanish kerak bo'ladi”**.

Xulosa shuki: “Siz boshqa odamlar sizni sevishlari va hurmat qilishlarini istaysiz, lekin shu bilan birga siz o'zingizga tanqidiy ko'z bilan qaraysiz. Sizda ba'zi kamchiliklar bo'lsa-da, ularni yaxshi fazilatlaringiz bilan yashirishga harakat qilasiz. Sizda hali o'z foydangiz uchun foydalanmagan ko'plab imkoniyatlar mavjud. Tashqi tomondan siz intizomli va o'zingizga ishongandek ko'rinasiz, lekin ichkarida sizda hayajon va ishonchsizlik bor. Ba'zan siz to'g'ri ish qilyapman, deb o'ylaysiz. Siz xilma-xillikni va o'zgarishni yaxshi ko'rasiz, siz qattiq qoidalar bilan cheklanishni yoqtirmaysiz. Siz mustaqil, aqlli inson ekanligingiz va boshqa odamlarning fikrlarini asossiz qabul qilmasligingiz bilan faxrlanasiz [5].” Maqsad, qiyin vaziyatdan oson chiqish uchun shirin kalom, chiroyli tabassum va tetik ruhiy holatga ega bo'lish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. Neyropsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, 2023
2. Бобокалонов Р.Р. Нуткий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейропсихолингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023 234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.
3. Бобокалонов Р.Р. Нейропсихолингвистика: языковая личность и харизматический человек (Теория, практика и методика). Монография, LAMBERT Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 230 с. ISBN 978-620-6-15214-9
4. Бобокалонов Р.Р. Неразрывная связь семиотики и нейропсихолингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.
5. The Life of P. T. Barnum: Written by Himself. Originally published New York: Redfield, 1855. Reprint: Champaign: University of Illinois Press, 2000. ISBN 0-252-06902-1.
6. <https://autogear.ru/article/233/960/effekt-barnuma>